

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

JIYAMURATOV RUSTAM NURIDINOVICH

**KORXONADA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING
MARKETING STRATEGIYALARI**

08.00.11 - Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Economics Sciences**

Jiyamuratov Rustam Nuridinovich

Korxonada eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyalari 3

Жиямуратов Рустам Нуридинович

Маркетинговые стратегии повышения экспортного потенциала
предприятия 27

Jiyamuratov Rustam Nuridinovich

Marketing strategies to increase the export potential of the enterprise 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

JIYAMURATOV RUSTAM NURIDINOVICH

**KORXONADA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING
MARKETING STRATEGIYALARI**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida
2025.1.PhD/Iqt2268 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida
(www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xolmamatov Diyor Haqberdievich**
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ergashxodjaeva Shahnoza Jasurovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'murov Samad Egamnazarovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent kimyo-texnologiyalar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat _____dagi majlisida
bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49.
Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov
ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025- yil «__» _____dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

G.K. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., dotsent

Sh.Allayarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global raqobatning kuchayib borishi sharoitida fan, raqamli texnologiya va innovasiyalar har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishining asosiy omillari sifatida tobora ko‘proq e‘tirof etilmoqda. Mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni innovasiyalar, yuqori qo‘shilgan qiymatli tovarlar ishlab chiqarish va eksport qilish hajmi bilan belgilanmoqda. 2024 yil jahon tovarlar savdosi hajmi 2,9 % va xizmatlar savdosi 6,8 foizga o‘rdi. Jahon yalpi ichki mahsuloti bozor ayirboshlash kurslarida 2,8 foizga o‘rib Pandemiyadan keyingi tiklanishni hisobga olmaganda 2017 yildan beri birinchi yil bo‘ldi. Demak, tovarlar savdosi o‘shishi ishlab chiqarishdan yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Qiymat jihatidan jahon tovarlari eksporti 2 foizga oshib 24,43 trillion AQSH dollarini tashkil etdi, bu esa eksport va import o‘rtacha narxlari pasayganini ko‘rsatadi. Xizmatlar eksporti 9 foizga o‘rib 8,69 trillion AQSH dollarini tashkil etdi, bu esa bir qator tarmoqlar bo‘yicha kuchli talabni aks ettiradi¹.

Jahonda korxonalar eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha alohida marketing strategiyalarini ishlab chiqish, jahon bozorlaridagi talabni va raqobatni o‘rganish, global logistika tarmog‘ini yaratish, eksport tovarlar sifatini oshirish va brendni tanitish, raqamli marketing va onlayn savdo platformalari orqali global bozorlarga kirish imkoniyatlari bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya va Janubiy Koreya Respublikalarida eksport tovarlar jozibadorligini oshirish va jahon bozorlaridagi muvaffaqiyatli pozitsiyalarni mustahkamlash borasida olib borayotgan ilmiy ishlari korxonalar eksport salohiyatini oshirish borasida alohida ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishning muhim omili sifatida eksportni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 55-maqsadida “Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish” maqsadi belgilangan. 2030-yilgacha eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko‘paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish, dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish, “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifalari belgilangan². Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlash mamlakatdagi korxonalar eksport salohiyatini

¹ https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/trade_outlook25_e.pdf

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni// www.lex.uz

oshirishda marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-60-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 7-sentyabrdagi PF-6306-son "Eksportchi korxonalarini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 21-oktyabrdagi PF-6091-son "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 13-iyuldagi PQ-5184-son "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida", 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakat, hudud va korxonalar eksport salohiyatini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari va marketing strategiyalarini qo'llashning ilmiy jihatlari bo'yicha xorijiy olimlardan Nora Lado, Ester Martinez Ros, Ana Valenzuela, Bianchi Constanza, Garcia Rodrigo, Vu Yanrui, Bibek Ray Chaudhuri, Debottam Chakraborty, Vipin Sharma, Anand Sharma, Alen Mulabdic, Pinar Yasar va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan³.

MDH olimlaridan S.Dubkov, S.Dadalko, D.Fomenok, A.I.Volkova, I.A.Karachev, S.S.Morozov, P.V.Manin, S.A.Bagratuni, A.P.Gevrasyova, E.V.Sapir, A.G.Shmuratkina, N.O.Yakushev, M.A.Nikolaev, M.Yu.Maxotaeva, A.Abdimominova va boshqalarning ilmiy ishlarida korxonalar eksport salohiyatini oshirishning nazariy, ilmiy-uslubiy jihatlari o'rganilgan⁴.

³ Nora Lado, Ester Martınez Ros and Ana Valenzuela. Identifying successful marketing strategies by export regional destination. *International Marketing Review*, 2014, 21(6):573-597 pp., Bianchi, Constanza and Garcia, Rodrigo (2007) Export Marketing Strategies of an Emerging Country: An Exploratory Study of the Main Challenges and Factors Leading to Success for Chilean Food Exporters . *Journal of Food Products Marketing* 13(3):pp. 1-19., Wu Yanrui (2003): "Export Potential and Its Determinants among the Chinese Regions", School of Economics and Commerce, University of Western Australia, 35 Stirling Highway, Crawley WA 6009, Australia., Bibek Ray Chaudhuri, Debottam Chakraborty. Export Potential at the State-Level: A Case Study of Karnataka. *Indian Institute of Foreign Trade*. 2010, 1-26 pp., Vipin Sharma, Anand Sharma. An analysis of India's export potential in South Asia under SAFTA. *Journal of Social Economics Research*. 2023, 59-68 pp., Alen Mulabdic and Pinar Yasar. Gravity Model-Based Export Potential: An Application to Turkey. *Macroeconomics, Trade and Investment Global Practice*. 2021, 2-35 pp.

⁴ Дубков С., Дадалко С., Фоменок Д. Формирование и оценка экспортного потенциала промышленных предприятий. *Банкаўскі веснік, КАСТРЫЧНІК*, 2011. 29-35 с., Волкова А.И., Карачев И.А. Факторы роста экспортного потенциала малого инновационного предприятия. *Вестник финансового университета*. 2016. 31-

Korxonada eksport salohiyatini oshirish masalalari bo'yicha mahalliy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, X.I.Xoliqova, U.A.Rasulov, K.I.Sirojiddinov, O.Dj.Djurabaev, N.X.Sadriddinova, D.A.Abdieva va boshqalar korxonada eksport salohiyatini oshirishning nazariy-uslubiy masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan bo'lsa⁵, korxonada eksport salohiyatini oshirishda xalqaro marketing strategiyalaridan foydalanishning nazariy masalalari M.A.Ikramov, S.A.Salimov, Sh.Dj.Ergashxodjayeva, F.M.Nazarova, R.N.Karimova, M.R.Boltaboev, Z.D.Adilova va boshqalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan⁶. Mazkur tadqiqotchilar ilmiy natijalariga metodologik jihatdan qaralganda shunday xulosa qilish mumkinki, ular korxonada eksport salohiyatini oshirish muammolarini ko'proq makro (soha, tarmoq) va mamlakat darajasida yondashganlar. Ammo yuqoridagi mualliflar, korxonada eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish masalasiga asosiy e'tiborni qaratmaganlar.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotdagi chuqur o'zgarishlar sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

38 с., Морозов С.С. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. – М.: ЭКСМО, 2018. – 133 с., Манин П.В. Методика комплексной оценки экспортного потенциала промышленного предприятия // Научное обозрение. – 2019. – № 11-3. – С. 838-840., Багратуни С.А. Методический подход к реализации экспортного потенциала предприятий обрабатывающей промышленности. ДИССЕРТАЦИЯ на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург 2024 г., Геврасёва А.П. Теоретико-методологические основы исследования экспортного потенциала региона. Организация и управление в секторах национальной экономики. №2 2018, 41-45 с., Сапир Е.В., Шмураткина А.Г. Институциональный механизм повышения экспортного потенциала региона. Проблемы экономики. 2019, 169-176, Якушев Н. О. Теоретические аспекты развития экспортного потенциала регионов // Молодой ученый. — 2015. - №11. - С. 1046-1051. - URL <https://moluch.ru/archive/91/19648/> (дата обращения: 08.09.2019), Николаев М.А., Махотаева М.Ю. Формирование экспортного потенциала региона. «Экономика, право и управление». 6/2017 3-11 с., Abdimomynova A. Development Factors of Export Potential of the Region: Capabilities in Minerals and Infrastructure Sector. Academy of Strategic Management Journal, 2018.

⁵ Халиқова И. Региональные особенности рационального использования экспортного потенциала и развитие внешнеэкономической деятельности Узбекистана: автореф. дисс. на соиск. учёной степени кан. экон. наук, Т.: 2003., Расулов У. Предпосылки повышения эффективности экспортной деятельности текстильной отрасли в процессе глобализации мировой экономики (на основе сравнительного анализа текстильных отраслей Республики Узбекистан, Бангладеш и Республики Корея): автореф. дисс. на соиск. учёной степени кан. экон. наук, Т.: 2005., К.И.Сирожиддинов. Наманган вилояти экспорт салоҳияти таҳлили. Uzbek Scholar Journal. 2023. 41-46 б., Djurabaev O.Dj. Eksportbob mahsulot ishlab chiqarishda operatsion strategiyani takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: TDIU, 2024.; Sadriddinova N.X. Tўқимачилик кластерларининг экспорт салоҳиятини бошқариш механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Toshkent: TDIU, 2022.; Абдиева Д.А. Маркетинг ёндашувлари асосида тикув-трикотаж корхоналари экспорт салоҳиятини ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Toshkent: TDIU, 2021.;

⁶ Икромов М.А., Салимов С.А. Международный маркетинг: учеб. Пособие для ВУЗов. – Т.: Изд-во Нац. Библи. Узбекистана им. А. Навои, 2010. – 276 с., Ergashxodjaeva Sh.Dj., Nazarova F.M., Karimova R.N., Xalqaro marketing: Darslik. – Т., 2019. – 345 б., Болтабаев М. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси: иқт. фан. док. илм. дар. олиш учун ёзилган дисс. Т.: 2005. – 342 б., Адилова З. Халқаро бозорларга экспорт маҳсулотларини йўналтиришнинг маркетинг стратегиялари: иқт. фан. док. илм. дар. олиш учун ёзилган дисс. Т.: 2008

Tadqiqotning maqsadi korxonada eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korxonada eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlarni tahlil etish hamda mualliflik yondoshuvini asoslash;

korxonada eksport salohiyatini baholashning uslubiy asoslarini o'rganish;

korxonada eksport salohiyatini oshirishda marketing strategiyalarini ishlab chiqishning o'ziga xos jihatlarni tadqiq qilish;

O'zbekistonda eksport rivojlanishining asosiy tendensiyalarini tahlil qilish;

korxonalarining eksport salohiyati va raqobatbardoshligini tahlil qilish;

korxonalarining hududiy eksport salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlarini tadqiq qilish;

korxonada eksport salohiyatini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va yo'nalishlarini tadqiq qilish;

korxonada eksport salohiyatini oshirish bo'yicha marketing strategiyasini ishlab chiqish;

Samarqand viloyatining hududiy eksport salohiyatini oshirishni ekonometrik prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyatida eksport faoliyatini amalga oshirayotgan korxonalarining marketing faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib korxonada eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyalaridan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, iqtisodiy tahlil va sintez, omilli tahlil, tizimli tahlil, kuzatuv usuli, qiyosiy tahlil usuli RCA (Revealed comparative advantage), Balassa indeksi, "Samarali talab dinamikasi – samarali talab darajasi" matritsasi, ekonometrik prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "korxonada eksport salohiyati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonada eksport salohiyatining tarkibiy elementlari va o'ziga xos xususiyatlari, korxonada eksport salohiyati va korxonada raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlik modeli, "resurslar-zaxiralar-imkoniyatlar" zanjirida korxonaning ishlab chiqarish va tashqi bozorga mahsulot sotish imkoniyatlarining amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq murakkab va ko'p omilli tushuncha nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

tovarlar va xizmatlar eksportiga tayyorgarlik darajasining xom-ashyo, iste'mol tovarlari, yuqori qo'shilgan qiymatli tovarlar va xizmatlar eksporti guruhlarini bo'yicha korxonalarining eksport salohiyati va raqobatbardoshligini baholashda aniqlangan nisbiy ustunlik (RCA) indeksining maqbul ($RCA \geq 1,000$; $0,700 \leq RCA < 1,000$; $0,500 \leq RCA < 0,700$; $0,250 \leq RCA < 0,500$; $0,100 \leq RCA < 0,250$; $RCA < 0,100$) diapazonlari asoslangan;

Samarqand viloyati eksport tovarlar tarkibini "samarali talab dinamikasining samarali talab darajasi" matritsasi asosida korxonalarining eksport tovarlarni import

qiluvchi bozorlardagi talabning holati va hududiy ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini muvofiqlashtiruvchi marketing strategiyalari taklif etilgan;

hudud eksporti hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi yalpi hududiy mahsulot, sanoat mahsuloti, asosiy kapitalga investitsiyalar, infratuzilma va mehnat resurslari omillari o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida Samarqand viloyati hududiy eksport salohiyatini oshirishning 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korxonalar eksport salohiyatining tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi o'rganilib, korxonaning eksport salohiyati va korxonaning raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlik modeli ishlab chiqilgan;

korxonaning eksport salohiyati iqtisodiy salohiyatning ajralmas qismi bo'lib, uning ishlab chiqarish, mehnat, tabiiy resurslar, infratuzilma, investitsiya, ilmiy-texnikaviy va innovatsion salohiyat bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi asoslangan;

korxonaning eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlarni o'rganish natijasida korxonaning eksport salohiyatini oshirishning tarkibiy tuzilishi ishlab chiqilgan;

korxonalar eksport salohiyatini oshirish bo'yicha marketing strategiyalarini ishlab chiqishda xorij tajribasiga ko'ra korxonalar eksport faoliyatini rivojlantirish, eksportda ustuvor bo'lgan tovarlarni rag'batlantirish va maqsadli autidoriya uchun jozibadorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan samarali marketing strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish amaliyoti takomillashtirilgan;

korxonalar eksport salohiyati eksport sotuvlari rentabelligi, eksport mahsulotiga sarflangan marketing xarajatlarining ulushi, eksportdan olingan foydaning umumiy foydadagi ulushi, ishlab chiqarish aktivlarining rentabelligi, eksport mahsulotining rentabelligi kabi ko'rsatkichlar orqali baholash uslubiyoti takomillashtirilgan;

hududlarning eksport salohiyati va raqobatbardoshligi, tovarlar va xizmatlar eksportining hududlarga xos xususiyatlarini ochib berish va tavsiflashda qiyosiy tahlil usuli RCA (Revealed comparative advantage) indeksidan foydalanib, hududda faoliyat yuritayotgan korxonalarining eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari aniqlangan;

eksport tovarlar guruhlari va turlari bo'yicha talab hajmini baholash mezonlari "samarali talab dinamikasi" va "samarali talab darajasi" matritsasi tahlili asosida eksport tovarlar va tashqi bozorlar bo'yicha marketing strategiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi va viloyatlardagi statistika boshqarmalar ma'lumotlaridan olinganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot davomida erishilgan natijalarning ilmiy-nazariy jihatdan

asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalarning hududlar eksport salohiyatini baholash, eksport tovarlarga bo'lgan talab hajmini aniqlash va tashqi bozorlar holatini o'rganish asosida eksport salohiyatini oshirishga doir marketing strategiyalarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "O'zbekiston-2030" strategiyasining 55-maqsadida belgilangan "Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish" va 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan eksportni rivojlantirish dasturi doirasidagi ustuvor vazifalarni belgilashda hamda 60411200-Marketing ta'lim yo'nalishi talabalariga "Xalqaro marketing", "Strategik marketing", 70411201-Marketing mutaxassisligining "B2B marketing" kabi fanlaridan o'quv adabiyotlarini takomillashtirishda va ushbu fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korxonada eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyalari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "korxonada eksport salohiyati" tushunchasining iqtisodiy mazmunini korxonada eksport salohiyatining tarkibiy elementlari va o'ziga xos xususiyatlari, korxonada eksport salohiyati va korxonada raqobatbardoshligi o'rtasidagi bog'liqlik modeli, "resurslar-zaxiralar-imkoniyatlar" zanjirida korxonaning ishlab chiqarish va tashqi bozorga mahsulot sotish imkoniyatlarining amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq murakkab va ko'p omilli tushuncha nuqtai nazaridan takomillashtirish bo'yicha nazariy va uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "B2B marketing" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2024-yil 27-noyabrdagi 4-sonli majlisida muhokama qilingan va №217-27/11-ro'yxatga olish raqami bilan nashr ruxsatnomasi berilgan). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda ishlab chiqarish va tashqi bozorga mahsulot sotish imkoniyatlarining amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq murakkab va ko'p omilli tushuncha nuqtai nazaridan takomillashtirilgan korxonada eksport salohiyati tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

tovarlar va xizmatlar eksportiga tayyorgarlik darajasining xom-ashyo, iste'mol tovarlari, yuqori qo'shilgan qiymatli tovarlar va xizmatlar eksporti guruhlarini bo'yicha korxonalarining eksport salohiyati va raqobatbardoshligini baholashda aniqlangan nisbiy ustunlik (RCA) indeksining maqbul ($RCA \geq 1,000$; $0,700 \leq RCA < 1,000$; $0,500 \leq RCA < 0,700$; $0,250 \leq RCA < 0,500$; $0,100 \leq RCA < 0,250$; $RCA < 0,100$) diapazonlarini qo'llash taklifi O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 6-noyabrdagi 03-21-2-01527-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlardan elektrotexnika mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarining eksport hajmi va eksport geografiyasi kengaygan;

Samarqand viloyati eksport tovarlar tarkibini "samarali talab dinamikasining samarali talab darajasi" matritsasi asosida korxonalarining eksport tovarlarni import

qiluvchi bozorlardagi talabning holati va hududiy ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini muvofiqlashtiruvchi marketing strategiyalarini qo'llash taklifi Samarqand viloyati Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasining viloyat eksport geografiyasi kengaytirish va qondirilmagan talab mavjud bozorlarga mahsulotlarni eksport qilishga qaratilgan "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 6-noyabrdagi 03-21-2-01527-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Samarqand viloyati eksportida yuqori talab va yuqori o'sish sur'atiga ega oziq-ovqat mahsulotlarining eksport geografiyasini kengaytirish, yuqori talab, lekin past o'sish sur'atiga ega mashina va uskunalarni ishlab chiqarish hajmini oshirish, past talab, lekin yuqori o'sish sur'atiga ega rangli metallar bo'yicha innovasion mahsulotlar ishlab chiqarish, past talab va past o'sishga ega energetika va neft mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar, qora metallar va xizmatlarni rebrending va modifikasiya qilish imkoni yaratilgan;

hudud eksporti hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi yalpi hududiy mahsulot, sanoat mahsuloti, asosiy kapitalga investitsiyalar, infratuzilma va mehnat resurslari omillari o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida Samarqand viloyati hududiy eksport salohiyatini oshirishning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan Samarqand viloyati Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi tomonidan Samarqand viloyatining eksport salohiyatini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 6-noyabrdagi 03-21-2-01527-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Samarqand viloyatining uzoq muddatli tovarlar va xizmatlar eksport parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 12 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.


Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, Respublika Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Korxonaning eksport salohiyatini oshirishda marketing strategiyalarini ishlab chiqishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda “eksport salohiyati” tushunchasining turli talqinlari, korxonaning eksport salohiyatining tarkibiy elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi, korxonaning eksport salohiyatining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan hamda muallif tomonidan korxonaning eksport salohiyati va korxonaning raqobatbardoshligi o‘rtasidagi bog‘liqlik modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, korxonaning eksport salohiyatini baholashda gravitatsiya modelining keng qo‘llanilayotgan logarifmlashtirilgan shakllari asosida Xitoy, Hindiston, Pokiston, Turkiya va Rossiya kabi davlatlar korxonalarining eksport salohiyatini baholash tajribalari tadqiq qilingan.



1-rasm. Korxonaning eksport salohiyatining tarkibiy tuzilishi⁷.


Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra “eksport salohiyati” tushunchasi murakkab va ko‘p omilli tushuncha ekanligi, “resurslar-zaxiralar-imkoniyatlar” zanjirida korxonaning ishlab chiqarish va tashqi bozorga mahsulot sotish imkoniyatlarining amaliy qo‘llanilishi bilan bog‘liqligi asoslangan. Korxonaning

⁷ Korxonaning eksport salohiyatining takomillashtirilgan tarkibiy tuzilishi muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

eksport salohiyatining takomillashtirilgan tarkibiy tuzilishi muallif tomonidan taklif etildi (1-rasm).

Korxonaning eksport salohiyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan moliyaviy salohiyatning tarkibiy qismiga investisiya jozibadorligi va marketing salohiyatiga esa eksport mahsulotlar differentsiatsiyasi hamda tashqi sotish bozorlari diversifikatsiyasi kiritilgan holda takomillashtirilgan.

Korxonaning “korxonalar raqobatbardoshligi” va “korxonalar iqtisodiy salohiyati” bilan “korxonalar eksport salohiyati”ning o‘zaro bog‘liqligi mavjud. Korxonaning raqobatbardosh ustunliklarini rivojlantirish korxonalar iqtisodiy kompleksining jahon bozori tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga imkon beradi. Tadqiqotchi tomonidan korxonaning eksport salohiyati va korxonaning raqobatbardoshligi o‘rtasidagi bog‘liqlik modeli ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Korxonaning eksport salohiyati va korxonaning raqobatbardoshligi o‘rtasidagi bog‘liqlik modeli⁸.

Korxonaning eksport salohiyati va korxonaning raqobatbardoshligi o‘rtasidagi bog‘liqlik modelining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ichki va tashqi omillarning korxonaning eksport salohiyatiga ta’siri bilan bog‘liqdir. Ichki omillar mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarish bosqichida obyekt holatiga ta’sir qiladi, uni boshqarish eksport hajmini qiymat jihatidan oshirishga va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan. Bularga quyidagilar kiradi: resurslarning mavjudligi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, axborot ta’minoti va eksportni boshqarish tizimi.

Tashqi omillar, o‘z tabiatiga ko‘ra, ichki omillardan farqli o‘laroq, nazorat qilib bo‘lmaydi. Ularning ta’siri mahsulotlarni tashqi bozorlarda sotish jarayoniga

⁸ Muallif tomonidan takomillashtirilgan.

qaratilgan. Bularga quyidagilar kiradi: eksport faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, jahon tovar bozorlari holati, siyosiy omillar, raqobatchilar va iste'molchilarning xatti-harakatlari.

Dissertatsiyaning “**Korxonalar eksport salohiyatini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish holatining tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasining hajmi, O‘zbekiston eksport ko‘rsatkichlari dinamikasi, O‘zbekiston Respublikasi hududlarining eksport hajmi, O‘zbekiston Respublikasi eksportining tovarlar tarkibi, korxonalar eksport salohiyati va raqobatbardoshligini tahlil qilish uchun “Bulungur-Sandvik” MCHJ QK, “Smart Hygiene Facilities” MChJ QK, “Daka Tex” MCHJ QK, “SamAntepGilam” MChJ eksport faoliyati tadqiq etilgan. Korxonalarining hududiy eksport salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlarini tadqiq qilish maqsadida Samarqand viloyatining eksport tovarlar tarkibi tahlil qilingan (1-jadval).

1-jadval

2020-2024 yillarda Samarqand viloyati eksportining tovarlar tarkibi⁹, mln. AQSh dollari

Ko‘rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Tovarlar va xizmatlar eksporti	335,2	531,7	636,6	766,8	872,6
Tovarlarni eksport qilish (FOB bahosida)	322,4	504,2	603,9	703,5	659,0
Paxta	0,0	0,2	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari	12,0	45,1	33,4	14,5	23,1
Qora va rangli metallar	7,0	39,9	78,6	87,3	140,7
Energetika va neft mahsulotlari	0,5	0,7	5,1	17,2	22,9
Mashina va uskunalar	29,3	49,8	47,2	163,8	108,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	161,7	189,8	253,9	269,5	363,5
Xizmatlar	12,8	27,4	32,7	63,3	72,7
Boshqa	111,9	178,6	185,6	151,2	140,9

Samarqand viloyati eksportining tovarlar tarkibi 2024-yilda oziq-ovqat mahsulotlari (45,6 foiz), mashina va uskunalar (13,6 foiz), qora va rangli metallar (17,6 foiz), energetika va neft mahsulotlari (2,7 foiz) kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari (2,8 foiz) va boshqa tovarlar (17,7 foiz) tashkil etgan.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Samarqand viloyati eksport tovarlar tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari hamda mashina va uskunalar asosiy ustuvor eng katta ulushga ega.

Tadqiqotda Samarqand viloyatining istiqbolli yoʻnalishlardagi tovarlar savdosidagi qiyosiy ustunliklarini baholash uchun Balassa indeksidan (1) foydalangan holda hisob-kitoblar amalga oshirilgan.

$$BI_{i,c,t} = \left(X_{i,c,t} / \sum_i X_{i,c,t} \right) / \left(\sum_c X_{i,c,t} / \sum_i \sum_c X_{i,c,t} \right) \quad (1)$$

Samarqand viloyati eksportining tovarlar tarkibi tahlili uchun (Balassa indeksi – BI) 2020-2024 yillardagi statistika maʼlumotlaridan foydalanildi. Oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga koʻra Samarqand viloyati eksportining tovarlar tarkibi boʻyicha 2020-2024 yillar oraligʻida oziq-ovqat mahsulotlari, mashina va uskunalar, toʻqimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlar eksporti RCA indeks>1 tashkil etmoqda. Shuningdek, kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari 2021 yil, rangli metallar 2023-2024 yillarda RCA indeks>1, 2024-yilda kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari, qora metallar, energetika va neft mahsulotlari hamda xizmatlar eksporti RCA indeks<1 ni tashkil etmoqda. 2024-yilda Samarqand viloyat eksportida oziq-ovqat mahsulotlari, toʻqimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlar, mashina va uskunalar hamda rangli metallar nisbiy ustunlikka ega boʻlgan (2 -jadval).

2-jadval

Samarqand viloyati eksportining tovarlar tarkibi boʻyicha nisbiy ustunlik tahlili (2020-2024 yillar)¹⁰

Tovarlar guruhi	Balassa indeksi (BI)				
	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari	0,62	1,15	0,71	0,33	0,42
Qora metallar	0,08	0,10	0,09	0,12	0,18
Rangli metallar	0,31	0,83	0,12	2,07	1,96
Energetika va neft mahsulotlari	0,03	0,02	0,13	0,59	0,74
Mashina va uskunalar	2,98	2,22	1,45	3,99	2,39
Toʻqimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari	1,11	1,87	2,05	2,35	2,73
Oziq ovqat mahsulotlari	5,04	4,04	4,22	4,45	5,62
Xizmatlar	0,28	0,33	0,25	0,24	0,31

Korxonalarining eksport salohiyatini baholash quyidagi tartibda amalga oshirilgan:

1) Eksport sotuvlarining rentabellik koʻrsatkichi eksport mahsulotlarini sotish samaradorligi va daromaddan olingan foydaning ulushi. Bu quyidagicha aniqlanadi:

¹⁰ Muallif hisob-kitobi.

$$E_{sr} = \frac{\text{Eksport mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Eksport mahsulotlarni sotuv hajmi}} * 100 \% \quad (2)$$

2) Eksport mahsulotiga sarflangan marketing xarajatlarining ulushi. Korxonaning eksport salohiyatini baholashda marketing xarajatlari muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun eksport mahsulotlariga sarflangan marketing xarajatlarining ulushini baholash zarur.

$$E_{mx} = \frac{\text{Eksport mahsulotlar uchun marketing xarajatlari}}{\text{Eksport mahsulotlar tannarxi}} * 100 \% \quad (3)$$

3) Eksportdan olingan foydaning umumiy foydadagi ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{ffu} = \frac{\text{Sotuvdan olingan foyda}}{\text{Eksport sotuvidan tushgan tushum}} * 100 \% \quad (4)$$

4) Ishlab chiqarish aktivlarining rentabelligi. Bu ko'rstkich har bir eksport mahsulotni ishlab chiqarish va tashish uchun sarflangan so'm uchun qancha foyda keltirishini bildiradi.

$$E_{ffu} = \frac{\text{Eksport mahsulotining sotuvidan olingan foyda}}{\text{Asosiy vositalar + Nomoddiy aktivlar + Zaxiralar}} * 100 \% \quad (5)$$

5) Eksport qilinayotgan mahsulotning rentabellik ko'rsatkichi mahsulotni har bir sotilgan so'mga nisbatan realizatsiya samaradorligini aks ettiradi

$$E_{mx} = \frac{\text{Sotuvdan olingan foyda}}{\text{Eksport mahsulotlar tannarxi}} * 100 \% \quad (6)$$

“Bulungur-Sandvik” MCHJ QK va “Smart Hygiene Facilities” MCHJ QK korxonalari eksport salohiyatini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Bu esa ularning rentabelligi va foydaliligini ta'minlashga yordam bergan.

Har ikkala korxonada ham eksportdan olinadigan foydaning umumiy foydada ulushini oshirib, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashga erishgan.

Marketing xarajatlari ko'rsatkichi o'sishi, korxonalarining eksport faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor berayotganligini ko'rsatadi.

“Smart Hygiene Facilities” MCHJ QK korxonasi 2024-yilda eng yuqori eksport rentabelligiga erishgan bo'lsa, «Bulungur-Sandvik” MCHJ QK ham eksport faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirib, rentabellikni oshirgan.

Har ikkala korxonaning eksport salohiyatining oshishini, ishlab chiqarish samaradorligini va foydaliligini yaxshilashdagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatadi. Umuman olganda, mazkur tahlil kompaniyaning eksport salohiyatini yaxshilash va global bozorda raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan strategik qarorlarni qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

«Bulungur-Sandvik” MCHJ QK va “Smart Hygiene Facilities” MCHJ QK korxonalari eksport salohiyatining tahlili asosida korxonalarining eksport salohiyatini oshirish bo'yicha differentsiyalangan marketing strategiyalari va eksport bozorlar bo'yicha diversifikatsiya strategiyalari ishlab chiqilgan.

3-jadval

**«Bulungur-Sandvik» MCHJ QK va «Smart Hygiene Facilities» MCHJ QK
korxonalarining 2020-2024 yillardagi eksport salohiyatini baholash
natijalari¹¹, %**

Ko‘rstkichlar	Ekspert baholash ko‘rsatkichining ahamiyatligi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
«Bulungur-Sandvik» MCHJ QK						
Eksport sotuvlari rentabilligi	4	1,1	1,3	1,8	2,2	2,3
Eksport mahsulotiga sarflangan marketing xarajatlarining ulushi	1	1,1	0,9	1,2	1,4	1,6
Eksportdan olingan foydaning umumiy foydadagi ulushi	2	32,1	31,4	33,6	36,2	34,5
Ishlab chiqarish aktivlarining rentabelligi	3	0,9	1,7	1,8	2,1	2,3
Eksport mahsulotining rentabelligi	5	42,1	55,2	51,2	53,4	54,1
«Smart Hygiene Facilities» MCHJ QK						
Eksport sotuvlari rentabilligi	4	2,1	1,7	1,8	1,8	1,9
Eksport mahsulotiga sarflangan marketing xarajatlarining ulushi	1	1,9	2,1	2,2	2,4	2,6
Eksportdan olingan foydaning umumiy foydadagi ulushi	2	42,8	51,3	53,8	56,9	56,4
Ishlab chiqarish aktivlarining rentabelligi	3	1,3	1,9	2,4	2,7	2,9
Eksport mahsulotining rentabelligi	5	52,1	57,2	58,5	63,7	61,8

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, RCA indeksining turli darajalari orqali korxonalarining tovarlarini eksport qilishdagi nisbiy raqobatbardoshligini baholashning shkalalari oralig‘i quyidagicha takomillashtirildi:

$RCA \geq 1,000$ – bu holatda korxonaga muayyan mahsulotni eksport qilishda savdo ustunligiga ega, ya’ni u mahsulotning korxonaga uchun nisbiy kuchli eksport elementi ekanligini ko‘rsatadi.

$0,700 \leq RCA < 1,000$ – bu korxonaning raqobat ustunligi borligini bildiradi, lekin hali to‘liq savdo ustunligi emas. Biroq, korxonaning nisbiy raqobati yuqori bo‘lib, bu mahsulot eksportda kuchli o‘ringa ega bo‘lishi mumkin.

$0,500 \leq RCA < 0,700$ – bu daraja korxonaning ushbu mahsulotni eksport qilishda savdo ustunligiga erishish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bunday hollarda qo‘shimcha resurslar bilan savdo ustunligi kuchayishi mumkin.

$0,250 \leq RCA < 0,500$ – bu raqamlar korxonaning mahsulotni eksport qilishda raqobat ustunligiga erishish imkoniyatiga ega ekanligini bildiradi. Ya’ni, korxonaga bu mahsulotni eksport qilishni sezilarli darajada oshirishi mumkin, lekin hali kuchli raqobatbardosh emas.

¹¹ Korxonaga ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

$0,100 \leq RCA < 0,250$ – bu korxonaning mahsulotni eksport qilishda savdo ustunligi past ekanligini ko‘rsatadi. Mahsulotning eksportdagi hissasi bor, ammo bu juda zaif bo‘lib, kuchli raqobat ustunligi yo‘q.

$RCA < 0,100$ – bu esa korxonaning mahsulotni eksport qilishda raqobat ustunligi past ekanligini bildiradi. Korxonalar bu mahsulotni eksport qilishda deyarli raqobat qila olmaydi.

Tadqiqot olib borilgan “Bulungur-Sandvik” MCHJ QK, “Smart Hygiene Facilities” MCHJ QK, “Daka Tex” MCHJ QK, “SamAntepGilam” MChJ eksport salohiyati va raqobatbardoshligi baholandi (3-rasm).

Tovarlar guruhi	Tovarlar nomenklaturasi	«Bulungur-Sandvik” MCHJ QK	“Smart Hygiene Facilities” MCHJ QK	“Daka Tex” MCHJ QK	“SamAntep Gilam” MChJ	
Moddiy resurslar	Tabiiy-meniral resurslar					$RCA > 1,000$
	Gaz va neft					$0,700 \leq RCA < 1,000$
	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari					$0,500 \leq RCA < 0,700$
Iste‘mol tovarlari	Qayta ishlangan oziq-ovqatlar					$0,250 \leq RCA < 0,500$
	To‘qimachilik mahsulotlari					$0,100 \leq RCA < 0,250$
	Gilam va gilam mahsulotlari					$RCA < 0,100$
	Kimyo mahsulotlar					

3-rasm. Korxonalarning 2024-yil tovarlar va xizmatlar eksportida raqobat ustunliklari (tayyorlik darajasi bo‘yicha)¹²

Raqobat ustunligini baholashda korxonalarning quyidagi xususiyatlari aniqlandi:


1) «Bulungur-Sandvik” MCHJ QK qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (qalampir, loviya) eksporti bo‘yicha $0,500 \leq RCA < 0,700$ oraliqda eksport qilish imkoniyatiga ega. Quritilgan meva-sabzavotlar va konservalangan sabzavotlar bo‘yicha $0,250 \leq RCA < 0,500$ ega.

2) “Smart Hygiene Facilities” MCHJ QK to‘qimachilik mahsulotlari eksporti bo‘yicha $0,700 \leq RCA < 1,000$. Korxonaning nisbiy raqobat ustunligi yuqori bo‘lib, bu mahsulot eksportda kuchli o‘ringa ega; Xuddi shunday “Daka Tex” MCHJ QK ham to‘qimachilik mahsulotlari eksporti bo‘yicha $0,700 \leq RCA < 1,000$ ega.

3) “SamAntepGilam” MChJ gilam va gilam mahsulotlari bo‘yicha $RCA > 1$, ya‘ni korxonalar muayyan mahsulotni eksport qilishda savdo ustunligiga ega. Gilam va gilam mahsulotlarining korxonalar uchun nisbiy kuchli eksport elementi ekanligini ko‘rsatmoqda.

¹² Muallifning hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra, matritsaning 1-kvadrantidan faqat oziq-ovqat mahsulotlari o‘rin oldi (5-rasm).



5-rasm. Hududning ustuvor eksport tovarlarining joylashuv matritsasi¹³

Tovar guruhlari uchun ishlatilgan belgilar: O – oziq-ovqat mahsulotlari; M – mashina va uskunalari; R – rangli metallar; E – energetika va neft mahsulotlari; K – kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari; X – xizmatlar; Q – qora metallar.

Matritsaning 4-kvadrantidan mashina va uskunalari o‘rin olgan bo‘lib, kelgusida viloyat eksportida eng yuqori ustuvorlik beriladigan tovarlar hisoblanadi. Viloyat eksportida rangli metallar ham “samarali talab dinamikasi – samarali talab darajasi” koordinatalari darajalarida joylashtirish matritsasining 1-kvadranti tomon siljimoqda. Yaqin yillarda ishlab chiqarishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish hisobiga 1-kvadrant vaziyatidagi strategiyalar qo‘llaniladi.

Samarqand viloyatining asosiy eksport tovarlari energetika va neft mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari, qora metallar va xizmatlar matritsaning 3-kvadrantidan joy olmoqda (5-rasm).

Samarqand viloyati eksport tovarlar tarkibini samarali talab dinamikasining samarali talab darajasi koordinatalari darajalarida joylashtirish matritsasi bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Yuqori samarali talab darajasi va yuqori talab dinamikasi – Bu guruhga kiruvchi tovarlar xalqaro bozorda katta talabga ega bo‘lib, ularning eksport qilish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Ushbu tovarlar eksport strategiyasining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi (Yuqori potensial tovarlar: Samarqand viloyati eksportida oziq-ovqat mahsulotlari):

Raqobatni kuchaytirish: Bu segmentda bo‘lgan mahsulotlar bozorda yetakchi bo‘lish imkoniyatiga ega. Shu sababli, reklama va marketing imkoniyatlaridan foydalanish, mahsulotlar sifatini oshirish orqali raqobatchilarni ortda qoldirish rejalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

Resurslardan samarali foydalanish: Bu mahsulotlarga ko‘proq investitsiya ajratish, texnologik yangiliklar kiritish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi bozorlarga kirish strategiyasini qo‘llash kerak;

Diversifikatsiya: Agar bozor juda tez o‘sayotgan bo‘lsa, bu mahsulotlar bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar va mahsulotlar turini kengaytirish orqali bozorda ustunlikni saqlab qolish mumkin.

2. Yuqori samarali talab darajasi, lekin past talab dinamikasi – Ushbu guruhda talab yuqori bo‘lishi mumkin, lekin u barqaror yoki sekin o‘sayotgan bo‘lishi mumkin. Bu tovarlar hozircha foydali, ammo raqobat kuchayib, kelajakda bu talab kamayishi mumkin. (Barqaror mahsulotlar – Samarqand viloyati eksportida mashina va uskunalari):

Vaziyatni saqlab qolish: Bu mahsulotlar yaxshi daromad keltiradi, lekin bozor doimiy ravishda o‘zgarmaydi. Mahsulot sifatini saqlab qolish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan strategiyalarni qo‘llash kerak;

Ekport bozorlarni kengaytirish: bu mahsulotlarni boshqa bozorlarda (yangi geografik hududlarda) ilgari surish. Yangi mijozlarni jalb qilish, hozirgi bozorda pozitsiyani mustahkamlash va mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarini kuchaytirish kerak;

Bozor ustuvorligini saqlash: mavjud mijozlar bazasini kengaytirish va ularni qoniqtirish uchun maxsus aksiyalar, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilashga e‘tibor berish.

3. Past samarali talab darajasi, lekin yuqori talab dinamikasi – Bunday tovarlar hozirgi paytda xalqaro bozorda katta talabga ega bo‘lmasligi mumkin, lekin ularning talab dinamikasi o‘sayotgan bo‘lsa, kelajakda yuqori raqobatbardoshlikka ega bo‘lishi mumkin. Bu mahsulotlar investitsiya qilish uchun istiqbolli hisoblanadi. (Bozor o‘shish bosqichidagi mahsulotlar – Samarqand viloyati eksportida rangli metallar):

Investitsiyani oshirish: Agar mahsulotda katta o‘shish sur‘ati kuzatilayotgan bo‘lsa, bu segmentga resurslarni investitsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulotni yanada innovasion tovarga aylantirish kerak.

Bozorda yetakchilikni qo‘lga olish: Bozorda raqobatchilardan ilgarilash uchun mahsulotni innovasion va xaridorlar uchun qiziqarli qilishga e‘tibor qaratish lozim.

Reklama va marketing kommunikatsiyalarini kuchaytirish: Mahsulot haqida bozorni xabardor qilish uchun agressiv marketing kommunikatsiyalari va reklama strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

Strategik hamkorlikni rivojlantirish: yangi mahsulotlarni targ‘ib qilish va tezroq o‘shishga erishish uchun hamkorlar yoki distribyutorlar bilan hamkorlik qilish strategiyasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

4. Past samarali talab darajasi va past talab dinamikasi – Ushbu guruhda talab ham kam va kelajakda o‘shish imkoniyatlari ham past bo‘lishi mumkin. Bunday tovarlar eksport strategiyasida past ustuvorlikka ega (boshi berk ko‘chaga tushgan mahsulotlar – Samarqand viloyati eksportida energetika va neft mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari, qora metallar va xizmatlar).

Mahsulot portfelini optimallashtirish: agar mahsulot bozorda yaxshi ishlamayotgan xolda va o'sish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, bu mahsulotni ishlab chiqarishni qisqartirish yoki to'xtatish haqida o'ylash kerak;

Rebranding va modifikasiya: Agar mahsulotda hali ham ma'lum darajada potensial bo'lsa, uni takomillashtirish, mahsulot dizaynini o'zgartirish yoki yangi versiyalarni chiqarish orqali raqobatbardosh qilish mumkin.

4-jadval

Samarqand viloyat hududiy eksport ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillar¹⁴

Yillar	Hududiy eksport hajmi, mln. AQSh dollar	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd. so'm	Sanoat mahsuloti, mlrd. so'm	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	Infratuzilma (transport yo'llarining uzunligi) km	Mehnat resurslari, ming kishi
	Y	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄	X ₅
2010	109,2	6 585,8	2 011,2	1 083,1	61,2	1815,7
